

Nukus shahar Xalq ta'limi muassalari
faoliyatni metodik ta'minlash va tashkil
etish bo'limiga qarashli 38-sonli maktabning
O'zbek tili (davlat tili) fani o'qituvchisi
Jumamuratova Gulsaraning *“Yilning eng
yaxshi fan o'qituvchisi”* tanlovining
II bosqichi uchun yozgan bir soatlik

DARS REJASI

Nukus-2012

Sana: Ikkinchi mart

Sinfi: 8-sinf

Fani: O'zbek tili

Mavzu: O'zbekistonning tabiiy boyliklari. Fe'ning o'zlik nisbatda qo'llanishi.

III chorak 43-44-mavzu.

Vaqt: 45 daqiqa

Darsning maqsadi:

1. **Ta'limiy maqsad:** O'quvchilar O'zbekistonning tabiiy boyliklarihaqida ma'lumotga ega bo'ladi. Fe'ning o'zlik nisbati mavzusi bo'yicha qoidalarni o'zlashtiradi.
2. **Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarda fe'ning o'zlik nisbati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fikrlash, mavzu bo'yicha gap tuza olish ko'nikmalari va malakalari rivojlanadi.
3. **Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda o'zlarini qurshab turgan tabiatga e'tiborli bo'lish va uni qadrlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars tipi: Yangi bilimlarni o'zlashtirish.

Dars turi: Interfaol (didaktik o'yin mashq) darsi.

Dars metodi: Mini leksiya, refleksiya, savol-javob, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozlanishi: 8-sinf darslik kitobi, slaydlar, rasmlar, tarqatma materiallar, rangli jitonlar, plakat.

Jarayon:

- I. **Tashkiliy qism:** 3 daqiqa.
 - salomlashish
 - tanishuv

- sinf tozaligiga e'tibor qaratish
- davomatni aniqlash

II. **Uyga vazifa so'rash:** 10 daqiqa.

O'quvchilar 2 guruhga ajratiladi.

1-guruh: "Yer usti boyliklari"

2-guruh: "Yer osti boyliklari"

O'quvchilarga uyga berilgan vazifa yuzasidan quyidagicha savollar yozilgan tarqatma materiallar beriladi.

1-savol: O'zbekistonning tabiiy boyliklari haqida so'zlab bering.


2-savol: Yer osti tabiiy boyliklariga nimalar kiradi?

3-savol: Yer usti tabiiy boyliklariga nimalar kiradi?


4-savol: Biz tabiiy boyliklardan qanday foydalanishimiz kerak?

Savollarga o'quvchilar qanday javob berishlariga qarab rangli jitonlar orqali baholanadi.

1 ball




2 ball




3 ball



4 ball



5 ball



III **Yangi mavzu bayoni:** 5daqiqa.

Tabiiy boyliklar 2 xil bo'ladi; yer osti va yer usti boyliklari. Yer osti boyliklariga neft, oltin, ko'mir va turli metallar kiradi. Ularni olimlar va konchilar tadqiq qiladilar, izlab topadilar, qazib oladilar so'ngra ishlab chiqadilar. Yer usti boyliklariga esa daryo, ko'lv dengizlar, o'rmanlar va ekinzorlar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. Biz ushbu boyliklarni asrab avaylasak, samarali foydalansak, ular yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Gramatik mavzu:

Bajaruvchining o'zi ustida amalgam oshiradigan harakat yoki holatini ifodalagan fe'l shakli o'zlik nisbat deyiladi. O'zlik nisbati shakli fe'l asosiga *-i(n)*, *-i(l)* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Unli bilan tugagan fe'l asosiga o'zlik nisbatining *-n* yoki *-l*, undosh bilagan fe'l asosiga esa *-in* yoki *-il* qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan: Halima juda ozoda *kiyin*adi. Sobir masalani yechishga *qiynal*adi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: 15 daqiqa.

1. O'quvchilarga 3 daqiqa ichida 5 ta gap tuzish topshirig'i har bir guruh uchun beriladi.

Topshiriq:

3 daqiqa ichida 5 ta gap tuzing va tuzgan gaplarida fe'lning o'zlik nisbati qatnashishi kerak.

2. "*Olma daraxti*" chizilgan plakat doskaga osib qo'yiladi. Bu "Kim ko'p olma teradi" usuli hisoblanib, har guruhdan ketma-ketlik bilan bir o'quvchadan chiqib, olma ortiga yashiringan savolni o'qib javob berdi va savatga soladi. Bunga 7 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt ichida o'quvchilarning to'plagan olmalari sanaladi va ball qo'yiladi.

3. Keyin o'quvchilarga "*O'zbekistonning tabiiy boyliklari*" haqida haqida kichik matn tuzdiriladi. Bunga 5 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar tuzgan matnlarini o'qib beradi. Mazmuniga qarab baholanadi.

V. O'quvchilar bilimini baholash: 5 daqiqa

O'quvchilarning darsda faolliklari hisobga olinadi hamda guruhlar to'plagan ballar hisobga olinib, o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish: 2 daqiqa.

"*Tabiatimizni asraylik*" mavzusida kichik matn tuzish. Matnda fe'lning o'zlik nisbatidagi fe'llardan foydalanish.